



# ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATINING  
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI  
2024-YIL YANVAR-IYUN OYLARI  
(DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 74 228-30-42  
[www.andstat.uz](http://www.andstat.uz)

## Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra)




Bugungi kunda viloyatda 5 151 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan 1 359 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,4 %) Andijon shahriga, 546 tasi (10,6 %) Andijon tumaniga, 449 tasi (8,7 %) Asaka tumaniga, 364 tasi (7,1 %) Shahrixon tumaniga va 325 tasi (6,1 %) Xo'jaobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Shahar, tuman nomi	2024-yil 1-iyul holatiga korxonalar soni (birlik)		
	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan	Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda shahar, tumanlar ulushi, % da
<b>Jami:</b>	<b>5151</b>	<b>569</b>	<b>100,0</b>
Andijon sh.	1359	78	26,4
Xonobod sh.	109	16	2,1
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	246	37	4,8
Andijon	546	46	10,6
Baliqchi	265	47	5,1
Bo'ston	152	42	3,0
Buloqboshi	189	32	3,7
Jalaquduq	238	29	4,6
Izboskan	219	31	4,3
Ulug'nor	99	21	1,9
Qo'rg'ontepa	237	58	4,6
Asaka	449	38	8,7
Marhamat	194	27	3,8
Shahrixon	364	25	7,1
Paxtaobod	160	22	3,1
Xo'jaobod	325	20	6,2



## Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 36 921,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 113,7% ni tashkil etdi.





## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Andijon viloyatida 2024-yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 10 829,4 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.

Yanvar-iyun  
ming so'm



Yanvar-iyun  
o'sish sur'ati % da



■ Ming so'm ■ O'sish sur'ati, %da

*\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*


### Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, **36 921,7** mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **113,7 %** ni tashkil etdi.


Hajmi, mlrd. so'm



FHI. % da



Ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **662,5** mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,8 %** ini tashkil etdi.



### Yanvar-iyun

2022-y.	100,2 mlrd. soʻm
2023-y.	466,8 mlrd. soʻm
2024-y.	662,5 mlrd. soʻm

### FHI, % da

2022-y.	82,2%
2023-y.	141,0%
2024-y.	126,7%

## C seksiya

### Ishlab chiqaradigan sanoat

2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **35 851,1** mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining **97,1 %** ini tashkil etdi.

### Yanvar-iyun


2022-y.	23 530,8 mlrd. soʻm
2023-y.	28 089,7 mlrd. soʻm
2024-y.	35 851,1 mlrd. soʻm

### FHI, % da

2022-y.	123,1 %
2023-y.	104,4 %
2024-y.	113,4%



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati  
(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



2024-yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 10,2 ming tonna neft (2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 100,6 % ni tashkil etgan), 20 253,9 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (81,8 % ni), 24,6 ming tonna paxta tolasi (109,4 % ni) hamda 25,9 ming tonna paxta chigiti (100,6 % ni tashkil etgan) ishlab chiqarilgan.




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyun	2024-yil yanvar-iyun	Farqi, +/-
Yengil avtomobillar (ixtsoslashtirilmagan) - dona	204 189	124 512	-79 677
Paxtadan yigirilgan ip - tonna	18 549,3	33 663,7	15 114,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni - tonna	24 748,3	20 253,9	-204 494,4
Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar va to'siqlar - tonna	170,0	124,8	-45,2


Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida avtotransport vositalari, treyler, yarim tirkamalar ishlab chiqarish sohasining ulushi – 67,4 % (2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,0 %), kiyim ishlab chiqarishining ulushi – 9,7 % (2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,4 %), paxtani qayta ishlash va ip gazlama sanoatining ulushi – 9,4 % (2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 5,0 % (2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,2 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2023-yilning yanvar-iyun oylarida – 0,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 70,9 % (2023-yilning yanvar-iyun oylarida – 68,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 2,4 % (2023-yilning yanvar-iyun oylarida – 4,7 %) va quyi texnologiyalisi – 26,6 % (2023-yilning yanvar-iyun oylarida – 26,9 %)ni tashkil etdi.






## Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati 28,1 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,1 % ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 78,4 % ni tashkil etgan.


2023-yilning yanvar-iyun oylarida metallurgiya sanoati 30,5 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,1 % ni tashkil etdi. Oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 44,8 % ni tashkil etgan.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga koʻra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,1 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 103,5 % ga oʻsgan va ishlab chiqarish hajmi 409,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 0,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 85,9 % ni tashkil etgan.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga koʻra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,0 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 115,7 % ga oʻsgan va ishlab chiqarish hajmi 1 798,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 115,2 % ni tashkil etgan.

## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 2,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 2,2 m. ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 52,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023-yilning yanvar-iyun oylarida ichimliklar ishlab chiqarilishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 1,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 130,1 % ga o'sgan.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 114,5 % ga ko'paygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 359,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 99,4 % ni tashkil etgan.




## Kiyim ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,7 %, fizik hajm indeksi 97,4 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 3 461,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 109,6 % ni tashkil etgan.




### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi 123,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 390,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni fizik hajm indeksi esa 2,2 m. ni tashkil etgan.


### Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 103,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 7,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni fizik hajm indeksi esa 135,3 % ni tashkil etgan.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 100,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 213,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni fizik hajm indeksi esa 104,6 % ni tashkil etgan.

### Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 187,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 439,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 133,1 ni tashkil etgan.



### Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 92,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 198,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 113,4 % ni tashkil etgan.



### Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish


2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 67,4 %, fizik hajm indeksi 114,0 % ga o'sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 24 153,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 66,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 118,4 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2024-yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 299,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.


2024-yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 154,9 mlrd. so‘mga oshganligi kuzatildi.



**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyun	2024-yil yanvar-iyun	Farqi, +/-
Elektroenergiya, mln. kVt.s	319,6	397,0	77,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	0,4	-	-0,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 95,1 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyun	2024-yil yanvar-iyun	Farqi, +/-
Tabiiy suv: suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – mlrd. so'm,	57,2	78,8	21,6
Oqava suvlarning shlami – mlrd. so'm	9,9	16,3	6,4


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 78,8 mlrd. so'm yoki 63,7 % ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek, oqava suvlarning shlami bo'yicha xizmatlarda 16,3 mlrd. so'm hajm bajarilgan.

## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3 642,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 9,9 % ni tashkil etdi.


### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da

2023-yil yanvar-iyun



■ Xorijiy korxonalar


2024-yil yanvar-iyun



■ Xorijiy korxonalar  
■ Boshqa korxonalar

### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd. so‘m)da


2023-yil yanvar-iyun



Xorijiy korxonalar

Boshqa korxonalar

2024-yil yanvar-iyun




Xorijiy korxonalar

Boshqa korxonalar

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishida kichik biznesning ulushi 2024-yilning yanvar-iyun oylarida (jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 8 971,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 24,3 % ni tashkil etdi. Yillar kesimida taqqoslaganda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi oʻsib borayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu koʻrsatkich viloyatda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlariga aholining talabi oʻsib borayotganligini hamda eksport hajmi ortib borayotganligini bildiradi.

**Jami sanoat  
mahsulotlari hajmidagi  
ulushi,  
% da**



**Kichik biznes subyektlari  
tomonidan ishlab chiqarilgan  
sanoat mahsulotlari hajmi  
(mlrd. soʻm)**

